

TILNING INSON MA'NAVIY KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

Allambergenov Davronbek

NukusDPI O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tilning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, tilning qay darajada yuksakligi, millatning ma'naviy boyligi va bebaho mulki ekanligi yoritilgan. Tilni asrab-avaylash millatning yuksalishiga xizmat qilishi kabi masalalar qamrab olingan.*

Kalit so'zlar: *Til va millat, til xalqning milliy boyligi, til-millat qalbi, g'ururi va iftixori, millatning tilga muhabbati.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается о важности языка. Он также проливает свет на то, насколько высок язык, духовное богатство и бесценное достояние нации. Были затронуты такие вопросы, как сохранение языка, чтобы служить подъему нации.*

Ключевые слова: *язык и нация, язык-национальное богатство народа, язык-сердце, гордость и гордость нации, любовь нации к языку.*

Abstract: *This article talks about the importance of language. It also sheds light on how high the language, spiritual wealth and priceless heritage of the nation are. Issues such as the preservation of the language to serve the rise of the nation were raised.*

Key words: *language and nation, language is the national wealth of the people, language is the heart, pride and pride of the nation, the nation's love for language.*

Dunyodagi har bir millat o'z ona tili bilan faxrlanadi. Negaki, til millatning qalbi va uning dunyoda borligini ko'rsatuvchi muhim hodisadir.

Tilning ahamiyati xususida jahon fanida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgani, qadim zamonlardan so'z ustalari tilning betakror jilolarini o'z asarlari orqali ko'rsatishga urinib kelganlari ma'lum. Til haqida turli xil nazariy qarashlar shakllanganligi ham bor gap. Biroq ushbu masala doirasidagi fikr-mulohazalar hech qachon intihosiga yetmaydi, nazarimizda.

Millat bor ekan, o'sha millatning o'z ona tiliga nisbatan muhabbati aslo so'nmaydi. O'zbek tili va o'zbek millati haqida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Zero, milliy ma'naviyatimizni ona tilidan ayri holda tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Chunki xalqning ruhiyati, tabiati, butun borligi uning tilida aks etadi. Shuning uchun ham inson ma'naviy kamolotida ona tilining o'rni beqiyosdir.

Navoiy bobomiz turkiy (o'zbek) tilining boshqa tillardan aslo kam emasligini o'zining ilmiy va badiiy asarlari orqali ochib berishni maqsad qilgan va shunga erishgan bo'lsalar, yozuvchi Pirimqul Qodirovning ham bu masalada Alisher Navoiyga izdoshlik qilganini kuzatish mumkin. Uning "Til va el" deb nomlangan ilmiy badiyasida tiulimizning tadrijiy va tarixiy taraqqiyoti aniq ilmiy dalillar orqali yoritilgan. Muallifning fikricha, "chindan ham, har bir tilning betakror so'zlari, atamaları shu tilni

yaratgan xalqning hayot tarzini, tarixini, turmush sharoitlarini, psixologiyasini ifoda etish ehtiyojidan tug'iladi"²⁷.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarining so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida, o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Yo'qolib ketish xavfida bo'lgan tillarni saqlab qolish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iborat. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi.

E'tiborli tomoni shundaki, tilning lug'at boyligi turlichaligidan qat'iy nazar til o'sha millatning iftixori sanaladi. Har bir millat bunday yuksak insoniy tuyg'uni his etishga haqlidir. Chunki millat ilk bor o'zining mavjudligini ana shu ko'zgu orqali anglaydi. Shu o'rinda mashhur avar shoiri Rasul Hamzatovning "Ona tilim" she'ridagi haroratli misralar beixtiyor yodimizga tushadi:

Mayli, kim qay tildan zavqu shavq olsa,
Mening o'z tilimga jonim fido.
Erta ona tilim agar yo'qolsa,
Men bugun o'lishga bo'lurman rizo
Mayli, qashshoq bo'lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyuk.
Jahon minbaridan yangramasa ham,
Ona tilim menga muqaddas, buyuk..."²⁸

Avar tili u qadar boy bo'lmasa-da, shoirning o'z tiliga nisbatan muhabbati butun olamni lol qoldirganligi haqiqat. Shundan kelib chiqib, har bir millatning tili o'sha millat qalb qo'rini namoyon etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'kidlash lozimki, tilga nisbatan chuqur ehtiro, olovli muhabbat ilmiy tadqiqotlar va go'zal badiiy asarlar yaratilishiga zamin yaratadi va bu jarayon mana necha asrdiki, to'xtovsiz amalga oshib keladi. Fikrimizcha, bularning barchasiga millatning tilga munosabati yanada aniqroq qilib aytganda, milliy iftixori sababchidir. Bu tabiiy tuyg'ular, tilni ardoqlashlar esa o'z-o'zidan bir millat bilan ikkinchi millat tili o'rtasidagi tafovutlarni keltirib chiqaradi.

O'zbek xalqi ham azal-azaldan tilini juda qadrlagan, asrab-avaylagan xalqlardan hisoblanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, millatimiz o'tmishda juda katta yo'qotishlarga

²⁷ Qodirov P. Til va el. Ilmiy badia. – T.: 2005. 6-bet.

²⁸ Yo'ldoshev Q. va boshqalar., 7-sinf Adabiyot. Toshkent. 2017.

uchragan bo'lsa-da, xususan, turli bosqinlaru qatag'onlarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, o'zlikning asosiy belgisi sanalgan o'z ona tilini saqlab qoldi. Mustaqillik arafasida o'z davlat tiliga ega bo'ldi, "o'zbek tiliga davlat maqomi berilgani bugungi kunda o'zbek tilida mukammal hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi"²⁹.

O'zbek tilining taraqqiy etishiga va ayniqsa, uning davlat tili darajasiga ko'tarilishiga bir qancha omillar ta'sir qilgani ma'lum. Shular orasida millatimizning, qolaversa, butun o'zbek xalqining tilga bo'lgan o'tli muhabbati, qalb qo'ri hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov P. "Til va el" (ilmiy badia), T., 2005.
2. M.Aminov va boshq. Ish yuritish: amaliy qo'llanma. – T., 2017
3. Yo'ldoshev Q. va boshqalar., 7-sinf Adabiyot. Toshkent., 2017.
4. Zikrillayev G'. Istiqlol va adabiy til. T., 2004.

²⁹ M.Aminov va boshq. Ish yuritish: amaliy qo'llanma. – T., 2017. 8-bet.